

2022 y. «15» 6

Xonqa shaharcha

Keyingi o'rirlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan Xonqa tumanı xalq ta'limi bo'limi Nizom asosida ish ko'rvuchi raxbar B.Abdullayev bir tomonidan, keyingi o'rirlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan «URGANCH CHOLISH KONSALTING MARKAZI» xususiy korxonasi nomidan Nizom asosida ish ko'rvuchi J.To'raev ikkinchi tomondan Xonqa tumanı xalq ta'limi bo'limiga qarashli №20-sonli maktab joriy ta'mirlash bo'yicha mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. TA'RIFLAR

- Mazkur shartnomada quydagi ta'riflar qo'llaniladi:
 - ijro xujjalari** – naturada bajarilgan ishlarni yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqliggi tug'risidagi yozuvlar bilan birligida ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo'llaniladigan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa xujjalatlar, berkitiladigan ishlarni tasdiqlanganligi tug'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda qurilish normalari va qoidalarida nazaarda tutilgan boshqa xujjalatlar;
 - qurilish maydoni** – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnomasi bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib ko'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilarni bilan belgilab qo'yiladi;
 - vaqtinchalik inshootlar** – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan xar qanday tipidagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;
 - berkitiladigan ishlarni** – sifati va aniqligini keyingi ishlarni bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'limgan keyinchalik bajariladigan ishlarni va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlarni;
 - shartnoma narxini bo'lib chikish** – ishlarning xar bir bosqichi va yoki turlari qiymatini aniq belgilagan xolda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. SHARTNOMA MAVZUSI.

- Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq Smeta xujjalarda ko'zda tutilgan loyixa bo'yicha Xonqa tumanı xalq ta'limi bo'limiga qarashli №20-sonli maktab joriy ta'mirlashishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga Xonqa tumanı xalq ta'limi bo'limiga qarashli №20-sonli maktab joriy ta'mirlash ishlarni bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

- Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan, ishlarni qiymati barcha soliqlar, yig'imlar, ajratmalar va pudratchining boshqa xarajatlari o'z ichiga olgan xolda Xonqa tumanı xalq ta'limi bo'limiga qarashli №20-sonli maktab joriy ta'mirlash narxlarda jami 273 000 000 (Ikki yuz yetmish uch million) so'm
- Ishlar qiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quydagi xollar bundan mustasno:
 - qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
 - ishlarni qiymati Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;
 - ob'ektning qurilishi bir yildan ortiq muddatga o'zgartirilganda.
- Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun xujjalarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
- Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

- Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazaarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:
 - barcha ishlarni mazkur shartnomada xamda unga 2-ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazaarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;
 - qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni ta'minlaydi;
 - qurilish maydoni xududida vaqtinchalik inshootlar qurish;
 - Buyurtmachini subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor kilish;
 - qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muxitni, o'tkazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muxofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuniingdek yoritish chiroqlari o'rnatish;
 - qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta kilish;
 - mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob - uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar konstruksiyalar xamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;
 - qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;
 - qurilishda tavakkalchilik sug'urtasi uchun belgilangan summaga sug'urta tashkilotlaridan biri bilan tavakkalchilik sug'urtasi to'g'risida shartnoma tuzadi va sug'urta shartnomasi bilan sug'urta polisini byurtmachiga taqdim qiladi.
 - mazkur shartnomada nazaarda tutilgan barcha majburiyatlarni tuliq xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mavjudligini kafolatlagan o'zining 20% ga teng bo'lgan va unga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan berilishi kafolatlangan 20% aylanma mablag'larini mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ob'ekt xarajatlari uchun unumli ishlash majburiyatini oladi.

9. Pudratchi ob'ektni foydalanishga topshirish uchun Buyurtmachiga barcha ishlarni bajarilganini isbotlovchi xujjatlarni (ispolnitelnaya dokumentasiya) to'liq xajmda taqdim qiladi.

10. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

11. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

- mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo'lgan davrga dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

- ishlarni bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada kayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul kilingan majburiyatlar va boshka funksiyalarga rioya etilishini nazorat kilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

- Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chikish va qaror qabul qilish;

- moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 1-ilovaga muvofiq avans berish va moliyalashtirishni amalga oshirish;

- Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

- mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarini to'liq xajmda bajarish majburiyatlarini oladi;

12. Buyurtmachi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini bajarmasa yoki yetarli tarzda bajarmasa pudratchi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

13. Shartnoma tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi.

14. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova kilingan ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq ishlarni bajaradi.

15. Ob'ektni 30 kalendar kunida foydalanishga topshirilishi belgilanadi .

VII. TO'LOVLAR VA XISOB – KITOBLAR

16. Shartnoma bo'yicha o'zaro xisob-kitoblar milliy valyuta - «so'mda» qilinadi.

17. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha ishlarni Xonqa tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli №20-sonli maktab joriy ta'mirlash ishlariiga 30 % miqdorida avans o'tkazadi, bu 81 900 000 (Sakson bir million to'qqiz yuz ming) so'mni tashkil etadi.

18. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish Xonqa tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli №20-sonli maktab joriy ta'mirlash uchun budgetdan maqsadli berilgan mablag'lar 3 banka kunida moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvali asosida amalga oshiriladi. (1,2-ilovalar)

19. Buyurtmachi tomonidan joriy ta'mirlashni moliyalashtirish bajarilgan ishlarni xajmi va sifati tekshirilib qabul qilingandan keyin xaqiqiy bajarilgan ishlarni qiymatidan berilgan avans summasini proporsional ushlab qolgan xolda moliyalashtirish jadvali bo'yicha amalga oshiradi.

20. Pudratchining xisob raqamiga tushadigan mablag'lar ushbu ob'ekt qurilishi xarajatlari, shuningdek ta'minotchilarga, ob'ekt qurilishiga zarur bo'lgan materiallar, texnika resurslari, mexnatga xaq to'lash, ob'ekt qurilishida ishtirok etayotgan yordamchi tashkilotlarga to'lash uchun va Ushbu ob'ekt qurilishining boshqa xarajatlari qatt'iy sarflanadi.

21. Pudratchi joriy ta'mirlashni moliyalashtirish uchun xisobot oyning oxirgi kunigacha va yakuniy moliyalashtirish uchun xisob kitob uchun qurilish montaj ishlarni miqdori, xarajatlari to'g'risidagi «Bajarilgan ishlarni qiymati to'g'risidagi ma'lumotnomalar xisob-varaq-fakturani» o'zi tuzib taqdim qiladi. Buyurtmachi bajarilgan qurilish-montaj ishlarning miqdori, sifati va xarajatlarini tekshirib qabul qilib imzolaydi.

22. Buyurtmachiga joriy ta'mirlashni moliyalashtirish va yakuniy xisob-kitob uchun, bajarilgan qurilish-montaj ishlarni miqdori, sifati va xarajatlarini tekshiruvidan so'ng Pudratchi tomonidan tuziladigan va Buyurtmachi tomonidan qabul qilib imzo chekiladigan «Bajarilgan ishlarni qiymati to'g'risidagi ma'lumotnomalar xisob-varaq-faktura» asos buladi.

23. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga kadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk xuquqini uzida saklaydi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirigunga kadar ob'ektning tasodifiy yo'q kilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida buladi.

VIII. ISHLARNI BAJARISH.

24. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini yoki texnik auditorini tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlarni sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalilaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ishlarning xujjatlariiga muvofikligini tekshiradi.

25. Berkitilgan vakil yoki texnik auditor ishlarni bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan tusiqsiz tanishish xuquqiga egadir.

26. Pudratchi berkitilgan vakil yoki texnik auditori ishslash uchun joy bilan ta'minlaydi. Berkitilgan vakil texnik auditor pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni xal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

27. Pudratchi ishlarni bajarish loyhasiga va mazkur shartnomaning VI-bulimida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiklashtirilgan o'z rejasi va ishlarning xujjatlariiga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

28. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir kilmaydigan ishlarning xujjatlariidan mayda chetga chikishlarni Buyurtmachining roziligidiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar xisoblanmaydi.

29. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilar tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u xolda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularni zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi okibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

30. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining uzaro munosabatlari axamiyatga ega bulgan xollar va xolatlar (ishlarni boshlanishi va tamom bulishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar kursatilishi sanasi, ishlarni qabul qilib olinishi, utkazilgan sinovlar,

materiallar uz vaktida yetkazib berilmasligi bilan boglik tuxtab kolishlar, qurilish texnikasining ishdan chikishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzel-kesil muddatiga ta'sir kilishi mumkin bulgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining kaydlaridan qoniqmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon kiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

IX. YENGIB BULMAYDIGAN KUCH (FORS MAJOR) XOLATLARI.

31. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar kisman yoki tulik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshka yengib bulmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiksa va agar bu xolatlар mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday kisman yoki tulik bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarни bajarish muddati yengib bulmaydigan kuch xolatlari amal kilgan, shuningdek ushbu xolatlар yuzaga keltirgan vaktga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

32. Agar yengib bulmaydigan kuch xolatlari yoki ularning okibatlari bir oydan kup vaktga chuzilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservasiya kilish uchun kanday choralar qurilishini muxokama kiladilar.

33. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor kilinishini talab kilishga xaklidir.

X. KAFOLATLAR.

34. Pudratchi:

- barcha ishlarni tulik xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;
- loyixa xujjalriga xamda qurilish me'yorlari, koidalari va texnik shartlariga muvofik barcha ishlarni bajarish sifatini;
- o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa xujjalarda ko'rsatilgan sertifikasiyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofikligini;
- ishlarni qabul kilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklarni va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;
- ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

Mavjud nuqsonlar va ularning bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi. Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarni dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning umumiylarini summasini 5% miqdorida jarima solish xuquqiga ega.

XI. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.

35. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin Xonqa tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli №20-soni maktab joriy ta'mirlash boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;
- ishlarni tugatishning mazkur shartnoma belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortik muddatga ko'paygan xolda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;
- Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

konun xujjalriga muvofiq boshka asoslar bo'yicha shartnomaning bekor kilinishini talab qilish xuquqiga ega.

36. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan ikki oydan ortik muddatga to'xtatib ko'yilganda;
- Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari umuman bajarilmaganda;

konun xujjalriga muvofiq boshka asoslar bo'yicha shartnomaning bekor kilinishini talab qilish xuquqiga ega.

37. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlarni qiyatini Pudratchiga to'laydi.

38. Mazkur shartnomaning bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim koidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnomasi yuboradi.

39. Shartnoma bekor qilinganda taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

40. Shartnomaning bir tomonlama bekor kilinishiga yo'l qo'yilmaydi, konun xujjalarda yoki mazkur shartnoma nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

XII. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

41. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan takdirda aybdor tomon: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida» gi qonunida va boshqa qonun xujjalarda xamda mazkur shartnoma nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi va ikkinchi tamonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi.

42. Mazkur shartnoma ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmagan takdirda Buyurtmachi Pudratchi oldida kuyidagi xollarda javobgar bo'ladi va:

- belgilangan muddatda ob'ektni ish boshlash uchun pudratchiga topshirmasa dalolatnomasi bo'yicha buning oqibatida ishlarni bajarish jadvalida bajarish ko'zda tutilgan ishlarning bajarilmagan qismining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- buyurtmachining xisob raqamiga maqsadli moliyalashtirish uchun tushgan pul mablag'larini uch banka kunida sababsiz pudratchining xisob raqamiga o'tkazib bermasa ushlab turilgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;

- shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish jadvali bo'yicha bajarilgan ishlarni xajmini asossiz ravishda qabul qilib tasdiklashdan bosh tortgani uchun ushbu qabul kilish, tasdiklashdan bosh tortgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;

- shartnoma shartlari muvofik tayyor xolda qabul kilish uchun takdim kilingan ob'ektni asossiz ravishda qabul kilishdan bosh tortsa shartnoma qiyamatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

43. Mazkur shartnoma ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan takdirda Pudratchi Buyurtmachi oldida quyidagi xollarda mulkiy javobgar bo'ladi va:

- Ishlarni bajarish jadvalida belgilangandan kam xajmda ishlarni bajarsa , majburiyatlarning bajarilmagan kismidan xar kechiktirilgan kun uchun 0.5% mikdorda penya to'laydi.
 - Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdorda bajarib tegishli tartibdagi ma'lumotlar bilan xisobot oyining oxirgi kuniga qadar tasdiqlatmasa «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan ishlarni qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;
 - Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan mikdordan kam bajarsa, bajarilmagan kismining 5% miqdorida jarima to'laydi;
 - ob'ektini shartnomada belgilangan muddatda tayyor xolda foydalanishga topshirmasa shartnomasi qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;
 - Buyurtmachi, nazoratchi, foydalanuvchi tashkilotlar va ishchi komissiyasi tamonidan aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlarni belgilangan (o'n kundan ortiq bo'limgan) muddatda bartaraf qilmasa ushbu aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlarni qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi.
44. Agarda tomonlardan biri o'z rekvizitlarini shu jumladan yuridik va pochta manzillarini, telefon raqamlarini, korxona atamasi yoki maqomini noto'g'ri bersa va o'zgarganligi to'g'risidagi ma'lumotni uch kalendar kunda ikkinchi tamonga yozma xabar bermasa aybdor tamon ikkinchi tamonga shartnomasi baxosining 0,1% miqdorida jarima to'laydi.
45. Bir tamonning aybi bilan shartnomani bekor kilishga tug'ri kelsa, aybdor tamon ikkinchi tamonga barcha zararlarni qoplaydi, amalda qonunlarda belgilangan tartibda.
46. Tamonlarning mulkiy javobgarlikka tortilib to'laydigan neustoyka, shtraf va penyalari shartnomasi qiymatining 30% dan oshmasligi kerak.
47. Tamonlar neustoyka, jarima, penya kabi mulkiy talablarini dalolatnomasi asosida to'lov talabnomasi bo'yicha akseptsiz amalga oshirishga xaqlidir.

XIII. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI.

48. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda yoki o'zgartirishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan barcha nizoli masalalarni tomonlar muxokama bilan kelishuvga erishmasalar, u xolda ular qonun xujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojat kilishlari mumkin.

XIV. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

49. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amalda qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi. Buyurtmachi ushbu shartnomasi amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Pudratchining manfaatlariда uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Pudratchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amalda qonunchilik va normativ hujjatlarining Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

XV. ALOXIDA SHARTLAR

- 50. Mazkur shartnomaga imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qtodi.
- 51. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning aloxida qismlariga tegishli ish xujjatlarini Buyurtmachingning yozma ruxsatsiz, subpudratchilardan tashkari, biron-bir uchinchi tamonga sotish yoki berish xuquqiga ega bo'lmaydi.
- 52. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, xaqiqiy xisoblanadi.
- 53. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan xar qanday axdashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.
- 54. Agar Pudratchi shartnomasi bo'yicha ishlarni yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u xolda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlarni uchun unga xak to'lashni kechiktirishga xaqlidir.
- 55. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha xollar uchun amalda qonun xujjatlari qo'llaniladi.
- 56. Mazkur shartnomasi tamonlar imzolanib Budget kodeksining 122-moddasiga asosan G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgandan keyin yuridik kuchga kiradi va ushbu shartnomasi 31.12.2022 yil gacha amal qiladi.
- 57. Mazkur shartnomasi bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

XVI. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.

PUDRATCHI:

BUYURTMACHI:

«Urganch Cholish konsalting markazi» x/k	Xonqa tumani xalq ta'limi bo'limi
Manzil: Urganch tuman «Cholish» shaharchasi	Manzil: Xonqa tumani. X.Do'stligi ko'chasi 29 uy
Telefon: 93 922 88 45	Telefon: +99 862 39-93-257
x/r: 2020800004492641001	x/r: 401722860332237092100075036
INN: 206376599	INN: 201452895 OKED: 97600
Bank: ATB Agrobank Urganch filiali	Moliya vazirligi gaznachiligi
MFO: 00569	x/r: 23402000300100001010
OKONX: 61110	Bank: Markaziy bank Tosh.sh.
	MFO: 00014 INN: 201122919

Rahbar

J.To'raev



B.Abdullayev

**YURIDIK AHAMİYATGA EGA HUJJATLARNING QOÑUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA.**

1. Loyihaning turi: Shartnoma.
2. Loyihaning nomi: Pudrat shartnomasi.

«Buyurtmachi» Xonqa tumani xalq ta'limi bo'limi rahbar B.Abdullayev bir tomondan, «Pudratchi» «URGANCH CHOLISH KONSALTING MARKAZI» xususiy korxonasi nomidan J.To'raev ikkinchi tomondan Xonqa tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli №20-sonli maktab joriy ta'mirlash bo'yicha jami 273 000 000 (Ikki yuz yetmish uch million) so'mlik pudrat shartnomasini tuzish to'g'risida.

3. Xonqa tuman Xalq ta'limi bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan va 2022 yil 15 iyun kuni dasturga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Xonqa tuman yuridik xizmat ko'rsatish
markazi bosh yuriskonsul'ti**

2022-yil «15» iyun.



A.Tojiyev.

Хоразм вилояти Ҳонка тумани халқ таълим бўлумига карашли 20-сон мактабни жорий таъмирлаш бўйича ойлар давомида
ишларни бажариш графиги

2-июна

Нр	Объект иёми ва манзили	Хажим биргилгининг киймати	2022 йил учун ишларни бажариш киймати											
			1-чорак			2-чорак			3-чорак			4-чорак		
			январ	феврал	март	апрел	май	июнь	июль	август	сентябр	октябр	ноябр	декабр
1	2	3	4	5	6	7	8	9	11	12	13	14	15	16
1	Хоразм вилояти Ҳонка тумани халқ таълим бўлумига карашли 20-сон мактабни жорий таъмирлаш	273 000 000												

Б.Абдулаев

Ж.Тўраев

Ж.Пурдатчи




Хоразм вилояти Ҳонка тумани ҳалк тълпим бўлимига карашли 20-сон мактабни жорий таъмирлаш бўйича ойлар давомида
ишларни молиялашириш графиги

1-илюза

Тұр	Объект номи ва манзими	Жажм барлығынинг күймати	2022 илд үчун молиялаштириш күймати															
			1-чорак	2-чорак	3-чорак	4-чорак	Январ	Февраль	Март	Апрель	Май	Июнь	Июль	Август	Сентябрь	Октябрь	Ноябрь	Декабрь
1	Хоразм вилояти Ҳонка тумани ҳалк тълпим бўлими 20-сон мактабни жорий таъмирлаш	1	273 000 000				6	7	8	9	10	11	12	13	14	15		
	Аванс суммаси	2	81 900 000								81900000							
	Бажарилган иш учун	3	191 100 000								191100000							



Б.Абдуллаев



Ж.Тураев

